
"TILDA, FIKRDA, ISHDA BIRLIK"

Buvayda tumanida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun" shiori ostidagi "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-musiqiy tadbirlar davom etmoqda

Bugun tumandagi 17-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida Yangiqo'rg'on, Beglar, Dodxo mahalla fuqarolar yig'ini fuqarolari uchun "Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida "Mahallada duv-duv gap" tadbirlari tashkil etildi. Tadbir mobaynida buyuk Jadid bobolarimizning hayot yo'lini aks ettirgan sahna asari tomoshabinlarning alohida e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Tadbirni o'tkazilishidan maqsad, Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlarni xalqimizga aniq, hayotiy misollar va dalillar orqali tushunarli qilib yetkazish, aholining kayfiyatini ko'tarish va daxldorligini oshirishdan iborat.

2024-01-26 08:32:15